



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT QARORI

2025-yil 10 -fevral

Toshkent sh.

№ 4/1

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2025-yil I-yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida"gi PF-74-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 645-son qarori, shuningdek, vazifalarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining boshqa bir qator hujjatlari bilan Vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha Vazir o'rinbosarlari, Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, bosh va yetakchi mutaxassislari hamda Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyati hamda javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2025-yil I-yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasini ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining hay'ati a'zolari, Vazirning barcha o'rinbosarlari, Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlariga Vazirlikning 2025-yilning I-yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasiga kiritilgan ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlarning belgilangan muddatlarda, sifatli hamda to'laqonli bajarilishini tashkil va ta'min etish, ijrosi haqidagi ma'lumotlarni shaxsan hay'at raisi (Vazir) nomiga yozib, umumlashtirish uchun Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi (Ibragimov)ga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

Belgilab qo'yilsinki, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining hay'ati a'zolari Vazir o'rinbosarlari, Vazirlik markaziy apparati boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari 2025-yilning I-yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasiga kiritilgan masalalarni Vazirlikda belgilangan Reglament asosida tayyorlanishiga hamda tizimli ravishda tashkil va ta'min etish uchun shaxsan mas'ul hisoblanadilar.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari, Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

10 kun muddat ichida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimlarining tegishli o‘rinbosarlari bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi “Suv xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risida”gi PF-74-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 645-son qarori bilan Vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar hamda vazirlik markaziy apparati boshqarma hamda mustaqil bo‘limlarining Nizomlari va xizmat vazifalari taqsimotida belgilab qo‘yilgan vazifa, funksiya va majburiyatlardan kelib chiqqan holda 2025-yilning I-yarim yilligi uchun mo‘ljallangan ish rejalarini ishlab chiqib, Vazirlikka tasdiqlash uchun taqdim qilish;

har oy yakuni bilan 2025-yilning I-yarim yilligi uchun mo‘ljallangan ish rejasining ijrosi haqidagi ma‘lumotlarni yozma ravishda shaxsan hay‘at raisi (Vazir) nomiga yozib, umumlashtirish uchun Tashkiliy-nazorat va tahlil bo‘limi (Ibragimov)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Vazirning birinchi o‘rinbosari T.Butunbayev, Vazir kotibiyati mudiri A.Mangliyev hamda Tashkiliy-nazorat va tahlil bo‘limi boshlig‘i M.Ibragimovlarga:

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2025-yilning I-yarim yilligi uchun mo‘ljallangan ish rejasi ijrosi yuzasidan tizimli monitoring yuritish;

Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘limlari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarining 2025-yilning I-yarim yilligi uchun ish rejalarini tartibga solish bo‘yicha kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘limlarining, shuningdek, Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarining ish rejalarini ijrosi ustidan tizimli nazorat o‘rnatish va ijrosini har oyda tanqidiy ruhda tahlil qilib borish hamda har oy yakuni bilan Vazirlar Mahkamasiga va Vazirlik rahbariyatiga, shuningdek, boshqa davlat organlariga (so‘ralgan vaqt va muddatlarda) axborot va ma‘lumotlarni taqdim etish;

ish rejasiga kiritilgan topshiriqlar va tadbirlarning ijrosini belgilangan muddatda, to‘laqonli va sifatli ta‘minlamagan va o‘rnatilgan tartibda axborot taqdim qilmagan, shuningdek, ijrosi kechikishiga yo‘l qo‘ygan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo‘llash yuzasidan taklif (Vazirlik buyruq loyihasini) kiritib borish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini tashkil etishni vazirning barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatib, ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Hay‘at raisi



Sh. Xamrayev